

## MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK NASRIDA BADIY TAFAKKUR YANGILANISHI

*Alisher navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyot magistri*

*Ne‘matov Elzod Farhod o‘g‘li*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mustaqillik davri o‘zbek nasrida yuz bergan tub badiiy-estetik o‘zgarishlar va badiiy tafakkur yangilanishi tamoyillari tadqiq etilgan. Sotsialistik realizm qoliplaridan voz kechish, ijodiy erkinlik, milliy o‘zlikni anglash hamda an’anaviy realistik tasvirning yangi adabiy oqimlar bilan sintezi asarlar misolida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida U.Hamdami, Xurshid Do‘stmuhammad va Nazar Eshonqul kabi yozuvchilar ijodidagi qahramon ruhiyati, milliy mentalitet va syujet qurilishidagi yangilanishlar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqillik davri nasri, badiiy tafakkur, o‘zbek adabiyoti, modernizm, milliy xarakter, qissa, roman, psixologizm.

Mustaqillik davri nasrida badiiy talqin yangilanishining birinchi belgisi psixologizmning chuqurlashuvidir. Qahramon endi voqealar oqimiga tashlangan oddiy xarakter emas; u o‘z xotirasi, iztirobi, ichki savollari, ma’naviy beqarorligi bilan tasvirlanadi. Bunday psixologizm milliy nasrning realistik tajribasini inkor qilmaydi, balki uni ruhiy tahlil bilan boyitadi. O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani, N.Eshonqul hikoyalari, U.Hamdami romanlari, X.Do‘stmuhammadning intellektual nasri buni yaqqol ko‘rsatadi.

Ikkinchi belgi ramziylik va metaforiklikning kuchayishidir. I.Yoqubovning kuzatishiga ko‘ra, mustaqillik davri milliy romanlarining makon va zamon chegaralari kengayib bormoqda; keyingi yillar romani poetik ifoda qamrovi reallik, xayolot, tush va xotira o‘rtasidagi darhol ilg‘ash qiyin bo‘lgan aloqadorlik hisobiga boyigan, badiiy

tasvirga qiyoslash, chog‘ishtirish, qarshilantirish, kutilmagan o‘rin almashish va birikish holatlari kirib kelgan, asarning metaforiklik darajasi ortgan. Bu fikr mustaqillik nasrida voqealar tashqi ketma-ketligi o‘rniga ma’no qatlamlari ketma-ketligi muhimlashganini ko‘rsatadi. O‘quvchi endi matnni faqat voqea darajasida emas, assotsiativ, ramziy va falsafiy darajada ham o‘qishi kerak bo‘ladi.<sup>1</sup>

Uchinchi belgi milliy va jahon adabiy tajribasining sintezidir. I.Saymuratova istiqlol davri romanlarida milliy an’anaga xos hamda modernistik, postmodernistik ifoda uslublariga xos poetik vositalar sintezini yaxlit adabiy jarayon kontekstida tahlil etishni tadqiqot vazifalaridan biri sifatida belgilaydi; shuningdek, epik bayon shakllari, ramziy-majoziy obraz yaratish yo‘llari yangilanishi poetik ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan omil ekanini ko‘rsatadi. Bu xulosa mustaqillik nasrining murakkabligini ochadi: yangi nasr nafaqat mazmunan milliy, balki shaklan ochiq, tajribaviy va ko‘p qatlamlidir.<sup>2</sup>

To‘rtinchi belgi polifonik bayon va kompozitsion murakkablikning ortishidir. Mustaqillik davri romanida bitta hukmron ovoz o‘rniga bir necha dunyoqarash, bir necha ruhiy holat va bir necha ma’no markazlari yonma-yon yashaydi. Bu holat ayniqsa X.Do‘stmuhammad va I.Sulton romanlarida ko‘rinadi: ularda roviy pozitsiyasi, tarixiy xotira, falsafiy izoh, ramziy obraz va ichki kechinma bir-birini to‘ldiradi. Bunday polifoniya o‘quvchiga tayyor xulosa bermaydi; u matn ichidagi turli ovozlarni bir-biriga qiyoslash orqali ma’no yaratishga undaydi.

I.Yoqubov 2025-yildagi maqolasida zamondosh romannavislar turli zamon va makonda yaratilgan falsafiy-estetik, ma’rifiy-axloqiy hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarda umuminsoniylik va poetik go‘zallik ifodalangan bo‘lsa, ularni ijodiy qayta o‘zlashtirishga ehtiyoj sezayotganini, ayni vaqtda nazariy asosning kengayishi milliy-adabiy an’analardan oziqlanayotganini ta’kidlaydi. Demak, bugungi nasrda yangilanish merosdan uzilish emas, balki merosni faol qayta o‘qish, uni zamonaviy tafakkur bilan uyg‘unlashtirish va yangi badiiy struktura yaratish jarayonidir.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup>Yoqubov I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida badiiy tasvir va poetik ifodadagi yangilanishlar. Toshkent, 2025. – B.1.

<sup>2</sup>Saymuratova I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shakl va uslub (Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton romanlari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Guliston, 2023. – B.7–8.

<sup>3</sup>Yoqubov I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida badiiy tasvir va poetik ifodadagi yangilanishlar. Toshkent, 2025. – B.2.

T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida mavzu, g‘oya va talqin birligi alohida ko‘rinadi. Asarning mavzusi dehqon hayoti, yer va mehnat kabi ko‘rinsa-da, muammo millatning tarixiy ezilishi, insonning ona tuproq bilan fojiali bog‘lanishi, avlodlar xotirasi va qadr masalasiga borib taqaladi. G‘oyaviy jihatdan roman milliy uyg‘onish va tarixiy adolatga intiladi; badiiy talqinda esa xalqona til, epik ohang, takror, ichki dard va ramziy detal muhim o‘rin tutadi. Bu asarda yer moddiy obyekt emas, milliy xotiraning tirik timsolidir.

X.Do‘stmuhammadning “Bozor” romanida bozor makoni mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning ramziy modeli sifatida talqin etiladi. Bu asarda mavzu o‘tish davri jamiyati bo‘lsa, g‘oya insonning bozor mantiqida o‘z ma‘naviy qiyofasini yo‘qotmaslik zaruratiga borib taqaladi. Badiiy talqin esa falsafiy muloqot, ramziy makon, intellektual tahlil va qahramonning ichki kuzatuvini orqali quriladi. Shu sababli “Bozor”ni oddiy ijtimoiy roman sifatida emas, balki inson va muhit munosabatini falsafiy badiiy modelga aylantirgan asar sifatida baholash to‘g‘riroqdir.

N.Eshonqul hikoyalarida mustaqillik davri nasrining modernistik yo‘nalishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida voqealar ko‘pincha realistlik izchillikdan ko‘ra ruhiy holat, g‘ayritabiiy sezim, qo‘rquv va begonalashuv mantig‘iga bo‘ysunadi. Bu talqin usuli shaxsning ichki inqirozini tashqi voqeadan ko‘ra kuchliroq badiiy hodisaga aylantiradi. Natijada hikoya janri kichik hajmda ham katta falsafiy-psixologik muammolarni ifodalash imkoniga ega bo‘ladi.

I.Sulton romanlarida milliy tarix, mif, tasavvufiy-falsafiy ishoralar, zamonaviy shaxs izlanishlari va kompozitsion murakkablik o‘zaro tutashadi. “Ozod” va “Boqiy darbadar” kabi asarlarda qahramon yo‘li tashqi sarguzashtdan ko‘ra ma‘naviy safar, borliqni anglash, o‘zlikni topish va tarixiy-falsafiy meros bilan muloqot jarayoni sifatida ko‘rinadi. I.Yoqubovning adabiy-falsafiy merosni vorisilik asosida qayta idrok etish haqidagi xulosalari aynan shu tipdagi romanlarni tushunishda muhim metodologik asos bo‘la oladi.

U.Hamdani nasrida esa shaxsning muvozanat izlash jarayoni yetakchi o‘ringa chiqadi. “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Yo‘l” kabi asarlarda qahramon ijtimoiy voqelik, e‘tiqod, muhabbat, vijdon, tarixiy meros va ruhiy poklanish masalalari o‘rtasida o‘z yo‘lini

izlaydi. Bu asarlarda g'oya nasihat sifatida emas, ichki izlanish jarayoni sifatida shakllanadi. Shu jihatdan U.Hamdami nasri mustaqillik davri o'zbek adabiyotidagi falsafiy-psixologik talqinning muhim ko'rinishlaridan biridir.

Mustaqillik davri o'zbek nasrida mavzu, g'oya va badiiy talqin tamoyillarining yangilanishi bir-biridan ajralgan hodisalar emas. Mavzu yangilanishi yangi hayotiy materiallarning adabiyotga kirib kelishi bilan boshlandi: tarixiy xotira, milliy o'zlik, bozor munosabatlari, shaxs va jamiyat ziddiyati, ruhiy inqiroz, ma'naviy izlanish, mumtoz merosni qayta o'qish, global olam va insonning borliqdagi o'rni kabi masalalar markazga chiqdi. Biroq bu mavzularning adabiy qiymati ularning qanday talqin qilinganida ko'rindi. D.Quronovning shakl va mazmun birligi haqidagi nazariy qarashlari asosida aytish mumkinki, mustaqillik nasridagi mazmuniy ehtiyoj shakliy-uslubiy yangilanishni ham taqozo etdi.

G'oyaviy yangilanish esa mafkuraviy tayyor javoblardan murakkab badiiy konsepsiyaga o'tish bilan belgilanadi. Mustaqillik nasrida inson endi ijtimoiy vazifa bajaruvchi obraz emas, tarix, xotira, ma'naviyat va vijdon oldida javob beruvchi murakkab shaxs sifatida talqin etildi. Shaxs drammatizmi, milliy xotira, tarixiy adolat, axloqiy tanlov va ma'naviy poklanish g'oyasi turli janr va uslublarda yangi badiiy ifoda topdi. Bu jarayon T.Murod, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, U.Hamdami, I.Sulton, O.Muxtor, Asad Dilmurod kabi ijodkorlar nasrida turlicha ko'rinish oldi.

Badiiy talqin tamoyillarida psixologizm, ramziylik, metaforiklik, intertekstual aloqalar, tarixiy-falsafiy sintez, polifonik bayon va kompozitsion murakkablik kuchaydi. I.Yoqubov, I.Saymuratova, Y.Ziyayeva, G.Ashurova va S.Quronov tadqiqotlarida qayd etilganidek, mustaqillik davri romanchiligi milliy an'ana va jahon adabiy tajribasining ijodiy tutashuv maydoniga aylandi. Bu tutashuv o'zbek nasrining mavzu doirasini kengaytiribgina qolmay, uning g'oyaviy-estetik imkoniyatlarini ham chuqurlashtirdi.

Umuman, mustaqillik davri o'zbek nasri yangilanishini quyidagicha umumlashtirish mumkin: birinchidan, tarixiy xotira va milliy o'zlik badiiy tafakkurning asosiy manbalaridan biriga aylandi; ikkinchidan, inson konsepsiyasi ijtimoiy sxemadan ruhiy-ma'naviy murakkablik sari siljidi; uchinchidan, g'oya obraz, kompozitsiya va ramziy

qatlamlar orqali ifodalanadigan badiiy konsepsiya maqomiga ko‘tarildi; to‘rtinchidan, milliy nasr jahon roman tajribasi, modernistik ifoda va mumtoz meros bilan faol muloqotga kirishdi. Shu bois mustaqillik davri o‘zbek nasri milliy adabiyot tarixida yangi estetik bosqich sifatida baholanishi lozim.

**Xulosa.** Mustaqillik davri o‘zbek nasrini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. **Mafkuraviy erkinlik:** Adabiyot sovet davri qoliplaridan butkul xolos bo‘ldi. Ishchi-dehqon sinfi tasviridan inson ko‘ngli va ruhiyati tahliliga o‘tildi.
2. **Mifologizm va tarixga qaytish:** Milliy o‘zlikni anglash ehtiyoji tufayli tarixiy va afsonaviy motivlar, milliy qadriyatlar qayta baholandi hamda badiiy ssenariylarning asosiga aylandi.
3. **Uslublar polifoniyasi:** An‘anaviy realizm chegaralari kengaydi. O‘zbek nasrida modernizm, postmodernizm va magik realizm unsurlari muvaffaqiyatli sintez qilindi.
4. **Yangi qahramon tipi:** Jamiyatdagi o‘zgarishlar fonida o‘zligini, hayot mazmunini qidirayotgan, ruhiy iztiroblarga to‘la fojiviy va intellektual qahramonlar paydo bo‘ldi.

Umuman olganda, mustaqillik davri nasri nafaqat milliy an‘analarni saqlab qoldi, balki jahon adabiyoti tendensiyalarini o‘zlashtirib, o‘zbek adabiy tafakkurini xalqaro miqyosda yangi bosqichga olib chiqdi.

### **Adabiyotlar.**

1. Yoqubov I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida badiiy tasvir va poetik ifodadagi yangilanishlar. Toshkent, 2025. – B.1.
2. Saymuratova I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida shakl va uslub (Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton romanlari misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Guliston, 2023. – B.7–8.
3. Yoqubov I. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida badiiy tasvir va poetik ifodadagi yangilanishlar. Toshkent, 2025. – B.2.

4. **Quronov D.** Modernizm va uning o‘zbek nasridagi ko‘rinishlari // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2015. – № 6. – B. 45-51.
5. **Jabborov N.** Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati va nasrida milliy g‘oya va ramzlar tizimi: Filol. fan. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 42 b.
6. **Eshonqul N.** Ijodiy tafakkur uslublari (Monografiya). – Toshkent: Sharq, 2011. – 232 b.